Shartnoma № 6

«24» noyabr 2022 yil

Yangibozor tumani

"URGANCH LOYIHA SERVIS" MChJ keyingi o.rinlarda «BAJARUVCHI» deb yuritiladigan Nizom asosida ish ko'ruvchi rahbari M. Bakiyev bir tomondan, Yangibozor tuman hokimligi keyingi o'rinlarda «BUYURTMACHI» deb yuritiladigan Nizom asosida ish ko'ruvchi rahbari U. Qurbanov ikkinchi tomondan quyidagi shartnomani tuzdilar.

1. Maxsulot baxosi va shartnomaning umumiy summasi.

1.1. « BAJARUVCHI » quyidagi tasnif bo'yicha (yoki ilovadagi spesifikatsiya bo'yicha) xizmat turlarini bajarish, « BUYURTMACHI » esa ishlarni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi :

| № | Xizmat turi | O'lchov birligi | Miq-dori | Narxi, so'm | QQS, sum | Summasi, so'm |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish | xizmat | 1 | 35700000 | | 35700000 |
| 2 | | | | | | |
| 3 | | | | | | |
| 4 | | | | | | |
| | Jami : | | | | | 35700000 |

Ko'rsatiladigan xizmatning baxosi va miqdori kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi – so'mda to'lanadi.

1.1. Xizmat narxi o'zgarishi tomonlar kelishuvi orqali amalga oshiriladi.

1.2. Shartnomani umumiy summasi 35700000(o'ttiz besh million etti yuz ming) so'm

1.3. Hisob-kitob shakli pul o'tkazish yuli bilan amalga oshiriladi.

2. Xizmatlarni bajarish vaqti va sharti.

2.1. Xizmat ko'rsatish « BAJARUVCHI » tomonidan « BUYURTMACHI » ning topshiriqlari orqali amalga oshiriladi.

2.2. «BUYURTMACHI» «BAJARUVCHI» ning hisob raqamiga shartnomada ko'rsatilgan jami xizmatlar summasining 30 foizini oldindan 5 bank ish kunida o'tkazishni o'z zimmasiga oladi. Qolgan 70 foizi xizmat to'liq bajarib berilgandan keyin o'tkazishni o'z zimmasiga oladi.

3. Jarima sanksiyalari

3.1. «BUYURTMACHI» ga xizmat ko'rsatish avans puli o'tkazilgandan keyin 5 kundan kechiktirmay 100 % bajarilib berishi kerak. Ishlarni bajarish kechiktirilsa «BAJARUVCHI», «BUYURTMACHI» ga har bir kechiktirilgan kun uchun bajarilmagan ishning 0,5 % miqdorida jarima to'laydi. Bunda jarima summasi xizmat ko'rsatishlar baxosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

3.2. «BUYURTMACHI» tomonidan, bajarilgan ishlar qabul qilib bo'lingandan so'ng shartnoma summasining qolgan qismi 10 kundan kechiktirmay 100% o'tkazib berilishi kerak . «BUYURTMACHI» tomonidan pul o'tkazib berish kechiktirilsa , « BUYURTMACHI » « BAJARUVCHI » ga o'tkazib yuborilgan xar bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

3.3. «BUYURTMACHI»ga sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan ishlar, xizmatlar ko'rsatilgan bo'lsa ushbu lozim darajada bo'lmagan ishlar, xizmatlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar ishlar, xizmatlar haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa , to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir.

3.4. To'liq bo'lmagan, sifatsiz xizmat ko'rsatilsa , «BAJARUVCHI» «BUYURTMACHI»ning talabini olgan paytdan boshlab, 5 kunlik muddat ichida xizmatlarni butlab berishi shart.

3.5. To'lov, tovar-transport hujjatlarini yuborishni kechiktirgani uchun «BAJARUVCHI» «BUYURTMACHI»ga har bir holat uchun ko'rsatilayotgan xizmatlar qiymatining 1%i miqdorida jarima to'laydi.

4. Baxs va kelishmovchilik masalalarini yechish

4.1. Ushbu shartnoma bo'yicha yoki shartnomaga tegishli baxs va kelishmovchiliklar kelib chiqqan taqdirda ular o'zaro murosaga kela olishmasa O'zbekiston Respublikasi qonunlari asosida Xo'jalik sudlari orqali yechilishi mumkin.

5. Fors-major tasodiflari ro'y berganda masalalar yechimi.

5.1. Fors-major tasodiflari ro'y berganda shartnoma tuzuvchi tomonlar shartnoma shartlarini bajara olmay qolsalar buning uchun ma'suliyatli emaslar. Fors-major shart-sharoitlari O'zbekiston Respublikasi qonunlari asosida aniqlanadi.

5.2. Fors-major sharoiti vujudga kelganda shartnoma shartini shartnoma tugashiga taxminan 30 kun qolgandagi vaqtgacha davrga ikkinchi tomon yozma ravishda fors-major sharoitlaridan ogohlantirishi shart . Ogohlantirish haqida keltirilgan dalillar hukumatning tegishli idoralari tomonidan tasdiqlanishishi shart.

5.3. Shartnoma shartlarini butunlay yoki qisman bajarish mumkin bo'lmasa sharoit 3 oydan ko'prok davrga uzaysa, tomonlar ko'riladigan zararlarni to'lash ma'suliyatini uz zimmalaridan tushirib, shartnomani butunlay va qisman bajarish majburiyatlaridan ozod qilinadilar.

6. Umumiy shartlar.

6.1. Shartnoma ikki nusxada tuziladi va g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tgandan keyin yuridik kuchga ega bo'ladi.

6.2. Shartnoma 24 noyabr 2022 yildan 31 dekabr 2022 yilgacha amal qiladi.

6.3. Shartnomaga kiritiladigan har bir qo'shimcha uzgarishlar faqat yozma ravishda qonuniy shaklda to'ldirilib tomonlar kelishuviga asosan xal qilinadi.

8. Tomonlarning yuridik manzili va rekvizitlari:

| «BAJARUVCHI» | «BUYURTMACHI» |
|---|---|
| "URGANCH LOYIHA SERVIS" MChJ | Yangibozor tuman hokimligi |
| (mol yetkazib beruvchining nomi) | (budjetdan mablag' oluvchining nomi) |
| Manzil; Urganch sh Al-Xorazmiy ko'chasi | Manzil: Yangibozor tumani |
| Tel./faks: 97-362-43-34 | Tel./faks: 62-41-94-255 |
| h/r: 20208000804726376001 | sh/x/r:100022860332367013990018008 |
| Bank nomi: ATB Agrobank Xorazm fil | budjetdan mablag' oluvchi STIRi: |
| MFO: 00548 STIR 300917993 | OKONX: 97600 |
| OKED: | Moliya Vazirligi Yagona G'azna hisob varag'i |
| | h/v 23402000300100001010 |
| | Bank nomi: Markaziy bank Toshkent shaxri BBHKKM |
| | MFO: 00014 |
| | G'aznachilik bo'linmasi STIRi: 201122919 |
| Rahbar: M. Bakiyev | Rahbar: U. Qurbanov |

Xuquqshunos: З. Матчиев. 24.11.2022й.